

## 2019-yil 1-noyabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbqiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida viloyatda 5968 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4177 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5575 ta (50,1 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 16708 tani tashkil etgan.

### Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-noyabr holatiga)  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yilning 1-noyabr holatiga ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 16708 taga yetib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50,1 % ga o'sgan. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 28,3 % savdo, 16,5 % sanoat, 8,8 % qurilish, 10,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 7,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,3 % tashish va saqlash, 1,1 % axborot va aloqa, 1,5 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 22,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

|  | Umumiy soni, birlik |                | 01.11.2019 yil                          |                    |
|--|---------------------|----------------|---|--------------------|
|  | 01.11.2018 yil      | 01.11.2019 yil | O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % | Jamiga nisbatan, % |
| <b>Jami</b>  | <b>11133</b>        | <b>16708</b>   | <b>150,1</b>                            | <b>100</b>         |
| <i>shundan:</i>                                    |                     |                |   |                    |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 1267                | 1714           | 135,3                                   | 10,3               |
| Sanoat   | 1791                | 2763           | 154,3                                   | 16,5               |
| Qurilish   | 1020                | 1477           | 144,8                                   | 8,8                |
| Savdo  | 2192                | 4721           | 215,4                                   | 28,3               |
| Tashish va saqlash                                 | 447                 | 555            | 124,2                                   | 3,3                |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 847                 | 1213           | 143,2                                   | 7,3                |
| Axborot va aloqa                                   | 160                 | 191            | 119,4                                   | 1,1                |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 227                 | 258            | 113,7                                   | 1,5                |
| Boshqa turlari                                     | 3182                | 3816           | 119,9                                   | 22,9               |

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (4352 ta), Karmana (2684 ta), Qiziltepa (2010 ta), Xatirchi (1950 ta) va Navbahor (1547 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Uchquduq (770 ta), Konimex (543 ta) hamda Tomdi (293 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 16316 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 5448 taga (50,1 %) o'sgan.


## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (4083 ta), Karmana (2666 ta), Qiziltepa (1995 ta), Xatirchi (1929 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Uchquduq (760 ta), Konimex (534 ta) hamda Tomdi (291 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


### Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 5968 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 3,3 martaga ko'pdir.

**Yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning  
yillar kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (1159 ta), Xatirchi (891 ta), Qiziltepa (838 ta), Karmana (784 ta), Navbahor (557 ta) Uchquduq (397 ta) va Nurota (338 ta) tumanlari hamda Zarafshon shahar (674 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Tomdi (117 ta) va Konimex (213 ta) tumanlari korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2644 ta), sanoat (1192 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (544 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (410 ta), qurilish (336 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (43 ta), axborot va aloqa (70 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Tijorat korxonalari**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-oktabr holatiga 14221 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4319 ta, oilaviy korxonalar – 2658 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7024 ta va boshqalar 220 tani tashkil etgan.



**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat ko`rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-noyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 188 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 96 taga yoki 2,0 martaga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

2019-yil 1-noyabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida 188 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, bu korxonalar va tashkilotlarning eng yuqorisi Navoiy shahri (66 ta), Karmana (43 ta), Nurota (18 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Uchquduq va Navbahor (8 tadan), Tomdi (7 ta) hamda Konimex (6 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda**




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 115 tasi qo'shma korxonalar, 73 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, %



### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda


|                        | Jami       | shundan:           |                    |
|------------------------|------------|--------------------|--------------------|
|                        |            | Qo'shma korxonalar | Xorijiy korxonalar |
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>188</b> | <b>115</b>         | <b>73</b>          |
| Navoiy shahar          | 66         | 44                 | 22                 |
| Zarafshon shahar       | 12         | 9                  | 3                  |
| <i>tumanlar:</i>       |            |                    |                    |
| Konimex                | 6          | 4                  | 2                  |
| Qiziltepa              | 11         | 7                  | 4                  |
| Navbahor               | 8          | 6                  | 2                  |

|                        | Jami       | shundan:           |                    |
|------------------------|------------|--------------------|--------------------|
|                        |            | Qo'shma korxonalar | Xorijiy korxonalar |
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>188</b> | <b>115</b>         | <b>73</b>          |
| Karmana                | 43         | 26                 | 17                 |
| Nurota                 | 18         | 10                 | 8                  |
| Tomdi                  | 7          | 6                  | 1                  |
| Uchquduq               | 8          | 1                  | 7                  |
| Xatirchi               | 9          | 2                  | 7                  |

### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 80 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 48 taga ko'paygan. Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar asosiy qismi Navoiy shahar (22 ta yoki jami ulushi 27,5%), Karmana tumani (17 ta yoki 21,3%) va Nurota tumani (10 ta yoki 12,5%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Uchquduq tumani (7 ta yoki 8,8%), Zarafshon shahar, Tomdi va Xatirchi tumanlari (5 tadan yoki 6,2%), Qiziltepa (4 ta yoki 5,0%), Navbahor tumani (3 ta yoki 3,8%), va Konimex tumani (2 ta yoki 2,5%) hissalariga to'g'ri keladi.


**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 16 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 15 ta, Eron Islom Respublikasi - 11 ta, Hindiston Respublikasi – 8 ta, Turkiya Respublikasi - 5 ta, Qozog'iston Respublikasi - 4 ta va Koreya Respublikasi - 4 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari – 3 ta, korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (50 ta yoki 62,5 %), savdo (4 ta yoki 5,0 %), qurilish (5 ta yoki 6,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (11 ta yoki 13,8 %) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2 ta yoki 2,5 %) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (1 ta yoki 1,3 %), hamda tashish va saqlashda (1 ta yoki 1,3 %) tashkil etgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-noyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 14151 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-noyabr holatiga qaraganda 61,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 3556 tasi (25,1 %) Navoiy shahri, 2410 tasi (17,0 %) Karmana, 1752 tasi (12,4 %) Qiziltepa hamda 1615 tasi (11,4 %) Xatirchi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar kesimida jamiidagi ulushi, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 14151 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4628 tasi (32,7 %) - savdo, 2678 tasi (18,9 %) - sanoat, 1444 tasi (10,2 %) - qurilish, 1653 tasi (11,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1160 tasi (8,2 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, o'rmon va baliq xo'jaligi, 172 tasi (1,2 %) – axborot va aloqa sohasi, 195 tasi (1,4 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 526 tasi (3,7 %) - tashish va saqlash hissalariga to'g'ri keladi.



**Kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni to'g'risida  
MA'LUMOT**
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*
*birlikda*

|                        | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilgan   |
|------------------------|-------------------|-------------------------|-------------------------|
|                        | 01.11.2019 y.     | 01.11.2019 y.           | 2019 yil yanvar-oktyabr |
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>14484</b>      | <b>14151</b>            | <b>5827</b>             |
| Navoiy sh.             | 3785              | 3556                    | 1115                    |
| Zarafshon sh.          | 1185              | 1176                    | 660                     |
| <i>tumanlar:</i>       |                   |                         |                         |
| Konimex                | 417               | 408                     | 205                     |
| Qiziltepa              | 1761              | 1752                    | 822                     |
| Navbahor               | 1346              | 1337                    | 544                     |
| Karmana                | 2426              | 2410                    | 766                     |
| Nurota                 | 1054              | 1031                    | 332                     |
| Tomdi                  | 219               | 218                     | 114                     |
| Uchquduq               | 658               | 648                     | 388                     |
| Xatirchi               | 1633              | 1615                    | 881                     |


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 5827 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 3,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahar (1115 ta), Xatirchi (881 ta), Qiziltepa (822 ta) va Karmana tumanlari (766 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Nurota (332 ta), Konimex (205) hamda Tomdi (114 ta) tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (2643 ta), sanoatda (1190 ta), qurilishda (335 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (542 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (132 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (42 ta) hamda axborot va aloqada (70 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-noyabr holatiga 2689 tani tashkil etib, ulardan 2658 tasi yoki 98,9 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 3,9 martaga oshganligini ta'kidlash lozim.


#### Oilaviy korxonalarning soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

|                        | 01.11.2019 y.     |                         | 2019 yil yanvar-oktyabr |
|------------------------|-------------------|-------------------------|-------------------------|
|                        | Ro'yxatdan o'tgan | Faoliyat ko'rsatayotgan | Yangi tashkil etilgan   |
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>2689</b>       | <b>2658</b>             | <b>1991</b>             |
| Navoiy sh.             | 457               | 442                     | 314                     |
| Zarafshon sh.          | 130               | 130                     | 122                     |
| <i>tumanlar:</i>       |                   |                         |                         |
| Konimex                | 128               | 126                     | 109                     |
| Qiziltepa              | 260               | 258                     | 233                     |
| Navbahor               | 473               | 473                     | 357                     |
| Karmana                | 551               | 547                     | 339                     |
| Nurota                 | 204               | 201                     | 98                      |
| Tomdi                  | 30                | 30                      | 26                      |
| Uchquduq               | 19                | 19                      | 18                      |
| Xatirchi               | 437               | 432                     | 375                     |

**Oilaviy korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 25,2 % yoki 671 tasi sanoat, 37,5 % yoki 997 tasi savdo, 12,3 % yoki 326 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 14,3 % yoki 381 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,6 % yoki 42 tasi qurilish, 0,8 % yoki 21 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki

26 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 21 tasi axborot va aloqa hamda 6,5 % yoki 173 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda savdoda, eng kami esa tashish va saqlash, axborot va aloqa kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### 2019-yilning yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni, birlikda

|                        | Korxonalar soni | Jamiga nisbatan ulushi, % |
|------------------------|-----------------|---------------------------|
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>1991</b>     | <b>100</b>                |
| Navoiy sh.             | 314             | 15,8                      |
| Zarafshon sh.          | 122             | 6,2                       |
| <i>tumanlar:</i>       |                 |                           |
| Konimex                | 109             | 5,5                       |
| Qiziltepa              | 233             | 11,7                      |
| Navbahor               | 357             | 17,9                      |
| Karmana                | 339             | 17,0                      |
| Nurota                 | 98              | 4,9                       |
| Tomdi                  | 26              | 1,3                       |
| Uchquduq               | 18              | 0,9                       |
| Xatirchi               | 375             | 18,8                      |

2019-yil yanvar-oktyabr oylarida 1991 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 9,5 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Navoiy shahrida (314 ta), Xatirchi (375 ta), Navbahor (357 ta) va Karmana tumanlari (339 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Nurota (98 ta), Tomdi (26 ta) hamda Uchquduq (18 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

## 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 27,2 % yoki 542 tasi sanoat, 44,1 % yoki 877 tasi savdo, 8,8 % yoki 176 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari, 11,6 % yoki 231 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,1 % yoki 21 tasi qurilish, 0,6 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 % yoki 15 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 15 tasi axborot va aloqa hamda 5,0 % yoki 102 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

**KTYADR** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentyabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risida”gi 274-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9-fevraldagi 66-son qaroriga asosan ro‘yxatdan o‘tkazuvchi (Adliya vazirligi va Davlat xizmatlari agentligi) organlari tomonidan berilgan yuridik shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi.



Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:71-230-84-56